HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Huquqiy nigilizm nima va u jamiyat taraqqiyotiga qanday to‘sqinlik qilmoqda?

Azimova Sevara Azizxon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti 2-kurs talabasi
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.24338976

Kech tushgan chorrahada svetofor qizil yonib turibdi. Atrofda bitta ham mashina yo‘q. Ko‘pchiligimiz shu paytda to‘xtab turamiz, ko‘pchiligimiz esa “hech kim ko‘rmayapti-ku” deb o‘tib ketamiz. Bu shunchaki kichik jinoyat emas. Bu kichik masalada ham qonun “kimdir ko‘rsagina” amal qiladigan narsaga aylangan bo‘ladi.

Huquqshunoslar bunday munosabatga alohida nom bergan: huquqiy nigilizm. «Nihil» lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, «hech narsa» degan ma’noni anglatadi. Ya’ni qonunga, huquqqa va davlat institutlariga «hech narsa» deb qarash, ularni inkor qilish yoki shunchaki mensimaslikdir.

O‘zbek huquqiy adabiyotida huquqiy nigilizm odatda qonunga, huquqqa nisbatan hurmatsizlik, qonun talablariga rioya etmaslik deb ta’riflanadi. Darsliklarda uning ikki ko‘rinishi ajratiladi.

Faol huquqiy nigilizm huquqni ochiq-oydin inkor etishda namoyon bo‘ladi. Bunga qonunni bila turib buzish, uni oddiy bir “qog‘oz” deb bilish, hatto jinoyat sodir etish. Sust huquqiy nigilizm esa yashirinroq, ya’ni odamlar qonunni ochiq inkor etmaydi, lekin unga qiziqmaydi ham, bilishga urinmaydi, «bizda baribir ishlamaydi» deb qo‘l siltaydi. Ba’zan aynan ikkinchisi xavfliroq, chunki unda hech kim aybdor bo‘lib ko‘rinmaydi va butun jamiyat shunga ko‘nikib ketadi.

Yana bir muhim ajratish bor: nigilizm “pastdan” ham, “yuqoridan” ham bo‘lishi mumkin. Oddiy fuqaro qoidani buzsa, bu pastdan. Mansabdor qonunga qarshi ish tutsa, o‘zi uchun “istisno”lar yaratsa yoki hujjatni o‘ziga qulay talqin qilsa, bu yuqoridan. Yuqoridagi nigilizm odatda ko‘proq zarar keltiradi, chunki oddiy odam qonunga rioya qilish kerakligini avvalo qonunni ishlatuvchilardan o‘rganadi.

G. Tansikbayeva va V. Kostetskiy yana bir tushunchani qarshi qo‘yadi: huquqiy idealizm. Uning tarafdorlari “yaxshi qonun qabul qilishning o‘zi yetarli, shundan keyin hamma muammo hal bo‘ladi” deb hisoblaydi. Ikkala yondashuv ham qiyin ahvolga olib keladi: nigilist qonunga ishonmaydi, idealist esa qonunning o‘zi hamma ishni hal qiladi-qo‘yadi deb o‘ylaydi.

Bu hodisa yangi emas. Rus mutafakkiri Aleksandr Gersen XIX asrda rus jamiyatida huquqiy himoyaning yo‘qligi odamlarda qonunga nisbatan ishonchsizlikni tarbiyalaganini yozgan. Himoya bermaydigan qonunni odam o‘ziga dushman kuch sifatida ko‘rishga o‘rganadi, deydi u. Rossiyada bu mavzu bugun ham dolzarb: 2008-yil fevralida Krasnoyarsk iqtisodiy forumida Dmitriy Medvedev mamlakatda huquqiy nigilizm kuchliligini ochiq tan olgan.

Sobiq sovet hududlarida, jumladan O‘zbekistonda ham ildizlar tarixiy sharoit bilan bog‘liq. Shaxsiy aloqalar va “og‘zaki ko‘rsatma” rasmiy tartibdan ustun turgan davr ko‘pchilikning xotirasida saqlanib qolgan. Qonun qabul qilinadi, lekin amalda boshqacha ishlaydi, degan tajriba avloddan avlodga o‘tadi.

Keling maqolamizni ushbu savol bilan boshlasak: Nima uchun odamlar qonunga amal qiladi (va qilmaydi)?

Huquqshunoslik va ijtimoiy fanlarning ushbu savolga bir necha javoblari bor.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

1. Qonun hurmat qilinishi uchun qonunning o‘zi hurmatga loyiq bo‘lishi kerak. Amerikalik huquqshunos Lon Fuller «The Morality of Law» (1964) kitobida qonun haqiqiy ma’noda ishlashi uchun sakkizta talabni sanagan. Qonunlar umumiy bo‘lishi, e’lon qilinishi, orqaga qaytib kuch bermasligi, tushunarli bo‘lishi, bir-biriga zid bo‘lmasligi, bajarib bo‘ladigan talablarni qo‘yishi, tez-tez o‘zgarib turmasligi va rasmiy ijro bilan yozilgan matn o‘rtasida muvofiqlik bo‘lishi kerak. Qonunchilik bu talablardan qanchalik uzoqlashsa, odamlarning unga ishonchi shunchalik kamayadi.

2. Odamlar qonunga adolatli tartibni ko‘rganda bo‘ysunadi. Psixolog Tom Tyler o‘zining «Why People Obey the Law» (1990) tadqiqotida shu narsani ko‘rsatgan: odamlar qonunga jazodan qo‘rqqani uchungina emas, ko‘proq uni qo‘llovchi idoralarni adolatli va hurmatli deb bilgani uchun rioya qiladi. Bu «protsessual adolat» deb ataladi: odamni tinglash, hurmat bilan muomala qilish, qarorni asoslab berish. Sud yoki inspeksiyada insonga qanday munosabatda bo‘lingani uning qonunga munosabatini bir yilga formal ma’ruza qilgandan ko‘ra yaxshiroq shakllantiradi.

3. Hokimiyat qonun orqali legitimlik oladi. Max Weber “qonuniy-ratsional” hokimiyatni tavsiflagan: odamlar mansabdorga u shaxsan kuchli bo‘lgani uchun emas, qoida va tartibga rioya qilgani uchun bo‘ysunadi. Mansabdor bu tartibdan chetga chiqsa, uning hokimiyati ham asosini yo‘qotadi.

4. Huquq uchun kurashish kerak. Rudolf von Jhering «Der Kampf ums Recht» (1872) asarida huquq o‘z-o‘zidan mustahkamlanmasligini, har bir shaxs o‘z huquqini himoya qilishi jamiyatda huquqning o‘zini himoya qilish ekanini yozgan. Odamlar huquqini talab qilmasa, qonun “uxlab” qoladi.

Endi maqolamizning asosiy savoli - bu taraqqiyotga qanday ta’sir qiladi? Nigilizm axloq masalasi emas, u ancha aniq iqtisodiy va ijtimoiy xarajatlarga ega.

Agar bunga iqtisodiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak, Iqtisodchi Douglass North (1993-yilgi Nobel mukofoti sohibi) institutlarni “o‘yin qoidalari” deb ta’riflagan. Qoidalar bajarilmasa, har bir bitim xavfli. Tadbirkor shartnoma tuzishdan oldin sudga ishonishi, mulkiga daxlsizlik kafolati borligini bilishi kerak. Aks holda u investitsiyani kechiktiradi, qisqa muddatli va shaxsiy aloqalarga tayangan ishlarni tanlaydi. Daron Acemoglu va James Robinson “Why Nations Fail” (2012) kitobida uzoq muddatli boylik “inklyuziv institutlar”, ya’ni hamma uchun teng ishlaydigan qonun va mulk himoyasi bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan. Hernando de Soto («The Mystery of Capital», 2000) esa rasmiy huquq odamlarga ishlamasa, katta mulk va faoliyat “norasmiy” sohada qolib, kapitalga aylana olmasligini yozgan.

Bundan tashqari qonunni chetlab o‘tish eng aniq ko‘rinishda pora shaklida namoyon bo‘ladi. Transparency International’ning 2025-yilgi Korrupsiyani qabul qilish indeksida O‘zbekiston 100 balldan 31 ball olib, 182 mamlakat orasida 124-o‘rinni egalladi (2024-yilda 32 ball va 121-o‘rin edi). Ma’lumotni uzoq muddatli ko‘rinishda ko‘rish ham foydali: 2016-yilda mamlakat 21 ball bilan 156-o‘rinda turgan, 2023-yilda esa 33 ball bilan eng yaxshi natijaga erishgan. Ya’ni so‘nggi o‘n yilda sezilarli yaxshilanish bo‘lgan, lekin keyingi yillarda bu o‘sish to‘xtab qolgan. Jahon bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich esa taxminan 42 ball.

Bunda odamlar “qoidani faqat ahmoq bajaradi” degan fikrga kelganida, halol bo‘lish qimmat tushadi. Haqiqatan ham qoidaga rioya qilgan odam navbatda kutadi, soliq to‘laydi, o‘zini yutqazgan his qiladi. Bu esa yana ko‘proq nigilizmni keltirib chiqaradi. Bu yomon doira deyiladi va undan chiqish ancha qiyin.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Nigilizm Innovatsiya va inson kapitali jihatidan ham juda zararli. Qonunlar o‘zgarib turadigan, ijrosi tanlovli muhitda iste’dodli odam qoidani o‘rganish o‘rniga “kim bilan tanish” deb o‘ylashga o‘rganadi. Bu esa kasbiy yutuqdan ko‘ra aloqalarga tayanishni rag‘batlantiradi.

Mamlakatimizda ushbu masalaga davlat darajasida e’tibor berilgan. Prezidentning 2019-yil 9-yanvardagi «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmoni aholining huquqiy ongi va savodxonligini oshirish tizimini qayta qurishga qaratilgan. Huquqiy nigilizm tushunchasi bugun maktab darsliklarida ham alohida o‘rganiladi.

2023-yilgi Konstitutsiya ham huquqiy ishonchni mustahkamlovchi normalarni kiritgan. 20-modda: inson va davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarda qonunchilikdagi ziddiyat va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinadi. 130 va 136-moddalar sud hokimiyatining mustaqilligi va sudyalarning faqat Konstitutsiya va qonunga bo‘ysunishini belgilab qo‘ygan. Qog‘ozda bular nigilizmning asosiy sabablariga qarshi qaratilgan normalardir.

Lekin har qanday norma amalga oshgandagina ishlaydi. Qonun bor, lekin odam uni bilmaydi. Qonun bilinadi, lekin ijrochi uni boshqacha qo‘llaydi. Qonun ijro etiladi, lekin tartibsiz o‘zgarib turadi. Bu uch holatning har biri turli yechim talab qiladi.

Huquqiy nigilizm qonunlar yetishmasligidan emas, ko‘pincha qonunga ishonch yetishmasligidan paydo bo‘ladi. Shuning uchun uning davosi ham faqat jazo yoki yangi qonun qabul qilish emas. Qonun adolatli, tushunarli va barcha uchun bir xil qo‘llanishi, uni qo‘llovchilar esa birinchi bo‘lib unga amal qilishi kerak.

O‘zbekiston bu yo‘lda ma’lum qadamlar tashlagan: korrupsiya indeksi 2016-yilga nisbatan ancha yuqori, huquqiy madaniyatga davlat siyosati darajasida e’tibor bor. Konstitutsiya inson foydasiga talqin qoidasini mustahkamlagan. Lekin so‘nggi yillardagi to‘xtash bu ish tugamaganini eslatadi. Chorrahadagi qizil chiroq oldida to‘xtash esa oddiy ishdek tuyulsa ham, aslida aynan shunday kundalik tanlovlardan jamiyatning huquqiy madaniyati tashkil topadi.